



## AUTIZM SINDROMLI BOLALAR.

*Andijon Davlat Pedagogika Instituti  
Logopediya yo'nalishi 102-guruh talabasi  
O'rmonaliyeva Muazzamxon Muslimbek qizi  
Ilmiy rahbar: assistent o'qituvchisi  
Axmedova Vaziraxon Tursunboyevna*

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233641>

**Anatatsiya:** Autizm sindronli bolalarni belgilari, kasallikni namoyon bo'lishi, autizm sindromli bolalarni turlari, autizmni kelib chiqish sabablari, autizm sindromli bolalarni patologiyasi, bolaning boshqalar bilan muloqatga kirishi, kasallikni davolash usullari, kattalarda autizm sindromini belgilari, kasallikni oldini olish.

**Kalit so'zlar:** Autizm, autizm sindromli bolalar, patologiyasi, kamchilik, autizm bosqichlari, kattalar autizmi, ruhiyat, tashxis, kasalliklar.

Autizm bolalar autizmi deb ham ataladi inglizcha: infantile autism, bolalik autizmi, erta go'daklik bolalik, Kanner sindromi yoki Kanner autizmi, DSM-IV - autistik buzuqlik - miya rivojlanishining buzilishidan kelib chiqadigan va ijtimoiy o'zaro ta'sir va aloqada aniq va keng qamrovli tanqislik, shuningdek cheklangan qiziqishlar va takrorlanadigan harakatlar bilan tavsiflangan kasallik. Bu belgilarning barchasi uch yoshdan oldin paydo bo'la boshlaydi. Yengilroq belgilar va alomatlar qayd etilgan shunga o'xshash holatlar autizm spektrining buzilishi deb ataladi. Autizmning sabablari miyadagi sinaptik aloqalarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi genlar bilan chambarchas bog'liq, ammo kasallikning genetikasi murakkab va hozirgi vaqtda autizm spektrining buzilishining paydo bo'lishiga nima ko'proq ta'sir qilishi aniq emas. Kamdan kam hollarda kasallikning tug'ma nuqsonlarni keltirib chiqaradigan moddalarga ta'sir qilish bilan bog'liq aloqasi topiladi. Boshqa taklif qilingan sabablar munozarali - xususan, autizmni bolalik davridagi emlashlar bilan bog'laydigan gipoteza uchun ilmiy dalil yo'q.

Amerika Qo'shma Shtatlari ma'lumotlariga ko'ra, 2011-2012 yillarda maktab o'quvchilarining 2 foizida autizm va autizm spektrining buzilishi rasman tashxis qo'yilgan, bu 2007-yildagi 1,2 foizga nisbatan ancha ko'pdir. 1980-yillardan beri autizm tashxisi qo'yilgan odamlarning soni keskin o'sdi. Autizm miyaning ko'plab sohalarida o'zgarishlar qayd etilgan, ammo ularning qanday rivojlanishi aniq emas. Ota-onalar odatda bolaning hayotining dastlabki ikki yilida buzilish belgilarini sezadilar. Erta xulq-atvor va kognitiv aralashuv bolada o'z-o'ziga yordam ko'rsatish, ijtimoiy o'zaro ta'sir va muloqotni rivojlantirishga yordam berishi mumkin bo'lsa-da, hozirda autizmni to'liq davolay oladigan ma'lum usullar mavjud emas.

Balog'atga yetganidan so'ng, kamdan-kam bolalar mustaqil hayotga o'tishga muvaffaq bo'lishadi, ammo ba'zilar muvaffaqiyatga erishadilar. Bundan tashqari, ularning ba'zi vakillari shifo izlamoqda, boshqalari autizm kasallikdan ko'ra ko'proq "maxsus", muqobil holat deb hisoblashadi. Erta bolalik autizm sindromi (qisqartirilgan RDA) autizmga xos bo'lgan sindrom bo'lib, birinchi marta kasallik 1943-yilda Leo Kanner(Kanner autizmi) tomonidan tasvirlangan. Autizm . Bolada tashqi dunyo bilan hissiy aloqa o'rnatish qiyin. O'zining hissiy holatini ifodalash va boshqa odamlarni tushunish muammoli bo'ladi.

Ko'z bilan aloqa o'rnatishda, imo-ishoralari, yuz ifodalari, intonatsiyalar yordamida odamlar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Hatto yaqin odamlar bilan ham, bola hissiy aloqalarni o'rnatishda qiyinchiliklarga duch keladi, lekin ko'proq darajada autizm bolaning begonalar bilan muloqotda namoyon qiladi. Autizm miyaning ko'p qismlariga ta'sir qiladi Autizm Parkinson kasalligi kabi miyaning boshqa ko'plab kasalliklaridan farqli o'laroq, molekulyar darajada ham, hujayra va tizim darajasida ham aniq yagona mexanizmga ega emas; autizm nomi ostida nima birlashtirilgani noma'lum - mutatsiyalar ta'siri kichik miqdordagi umumiy molekulyar zanjirlarga birlashadigan bir nechta kasalliklar yoki boshqacha mexanizmlarga ega bo'lgan katta



kasalliklar guruhidir. Ko'rinib turibdiki, autizm rivojlanish bosqichida ta'sir qiluvchi va miyaning ko'p yoki barcha funktsional tizimlariga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar ta'sirining natijasidir.

Autizm — ruhiyatning buzilishi bilan bog'liq holat. U miya faoliyatiga bevosita ta'sir qiluvchi nevrologik buzilishlar natijasida kelib chiqadi. Ushbu tashxis qo'yilgan jazzi bemorlar tashqi olam, atrofdagilar bilan muloqot qilishni istamaydi. Yolg'izlikni xush ko'radi. Bir xil xatti-harakat va so'zlarni takrorlaydi. Autizmga chalingan bola o'z olamida yashaydi. Fikrlashi boshqalarnikiga o'xshamaydi. Ularning xatti-harakatlarida hissiy kechinmalar asosiy o'rin tutadi. "Ushbu kasallik ko'p hollarda 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda paydo bo'ladi. Ammo uning ilk belgilarini aksariyat ota-onalar o'z vaqtida payqay olmaydi. Yaqqolroq alomatlar esa 2-3 yoshli bemorlarda ko'zga tashlanishi ehtimoli yuqori", — dedi Shoanvar Shomansurov. Autizmning ilk bosqichlarida bola ota-onaning ayrim harakatlariga javob qaytarmaydi. Masalan, uni ismi bilan chaqirganingizda qaramaydi.

Atrofdagi odamlar, qarindosh-urug'lar, ularning farzandlari bilan do'stona va iliq munosabatlar o'rnatil olmaydi. Kasallikka xos asosiy simptomlardan yana biri bemor bolalarning o'zgaralar ko'zlariga tik qaray olmasligidir. Bu kabi vaziyatlarda ular nigohlarini olib qochishga harakat qilishadi. Qolaversa, bunday bemor bolalar ba'zida gaplarni eshitmaydi, u yoki bu o'yinchoq bilan qanday o'ynashni bilmaydi, boshqalarga jilmaymaydi. Go'dak 12 oylik bo'lsa-da indamaydi, atrofga qiziqib boqmaydi, 2 yoshida ham gapira olmaydi. Uyqu buzilishlari, tajovuzkorlikka moyillik va qo'rquv ham autizm belgilari bo'lishi mumkin. Ushbu xastalikka chalingan bolalarga tibbiy amaliyotda taxminan 4 yoshligida aniq tashxis qo'yiladi. Lekin bu ancha kech muddat.

Vaholanki, bunday bemorlarda 18-24 oyligidayoq tegishli muolajalar boshlansa, ularning sog'lom hayotga qaytishi oson kechadi. Hozirgi kunda autizm bilan kasallangan bolalarga ijtimoiy moslashuv muassasalarida tibbiy, pedagogik, psixologik va reabilitatsion yordam ko'rsatiladi. Autizm – ruhiy buzilishning og'ir turlaridan biri bo'lib, atrofdagilardan uzoqlashishga harakat qilish va his-tuyg'ularni biz odatlangan ko'rinishda ifodalab bera olmaslik orqali namoyon bo'ladi. Autizm miya faoliyatiga bevosita ta'sir qiluvchi nevrologik buzilishlar natijasida kelib chiqadi. Autizmning qanday qilib va nima sababdan paydo bo'lishi, boladagi autizmning ilk belgilarini qanday aniqlash mumkinligi haqida quyida suhbatlashamiz. Bolalardagi autizm: ruhiy buzilishning ilk belgilari qanday?

Ko'p hollarda autizm 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda paydo bo'ladi, ammo uning ilk belgilariga aksariyat ota-onalar e'tibor qaratishmaydi. Autistik buzilishning belgilari 2-3 yoshlarda ko'zga tashlanishi ehtimoli yuqori. Autizmning ilk bosqichlarida bola ota-onaning ayrim harakatlariga javob qaytarmaydi, ularga befarqlik bilan munosabatda bo'ladi. Atrofdagi odamlar, qarindosh-urug'lar, ularning farzandlari bilan do'stona va iliq munosabatlar o'rnatil olmaydi. Ular ota-onalarining shirin so'zlari, erkalashlariga tabassum bilan javob qaytarishmaydi, jonsiz buyumlarga ham, odamlarga ham bir hil munosabatda bo'lishadi. Asosiy belgilardan yana biri – boshqalarning ko'zlariga tik qaray olmaslikdir. Ular ko'zlarining atrofdagi odamlar ko'ziga tushib qolmasligiga harakat qilishadi.

Nutq buzilishlari, gapira olmaslik, ijodiy yondashuvni talab qiluvchi o'yinlarni o'ynay olmaslik ham autizm belgilari bo'lishi mumkin. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, autizmga chalingan bolalarning harakatlarida bir xillik, uyqu buzilishlari, tajovuzkorlikka moyillik va qo'rquv ham kuzatiladi. Autizm – ruhiy buzilishning og'ir turlaridan biri bo'lib, atrofdagilardan uzoqlashishga harakat qilish va his-tuyg'ularni biz odatlangan ko'rinishda ifodalab bera olmaslik orqali namoyon bo'ladi. Autizm miya faoliyatiga bevosita ta'sir qiluvchi nevrologik buzilishlar natijasida kelib chiqadi.

Autizmga ma'lum belgilarga qarab tashxis qo'yish qiyin ekanligini aytishadi. Aniq tashxis qo'yish uchun shifokor ko'magi va bir qator tahlillar kerak bo'ladi. Tashxis qanchalik erta qo'yilsa, ota-ona va mutaxassislar davolash jarayonini shunchalik erta boshlashlari mumkin. Autizmga chalingan bolalarning bir qismi o'rta maktabni tugatishadi, kasb o'rganishadi, nufuzli



joylarda ishlashadi. Shunga qaramasdan, autizmga chalingan insonlarning shaxsiy hayotni izga tushirishlari va oila qurishlari juda qiyin bo'ladi. Autizmni davolash mumkinmi? Mutaxassislar autizmni davolash uchun bir nechta usullarni taklif etishadi. Ularning aytishlaricha, kichik yoshdagi bemorga har tomonlama yordam berish zarur. Ya'ni, davolash muolajasi o'zida tibbiy aralashuvni ham, bolaning ijtimoiy moslashuvini ham, ruhiy ko'makni ham jamlagan bo'lishi kerak. Ayrim hollarda nafaqat bolaga, balki uning ota-onasiga ham ruhshunos ko'magi kerak bo'ladi.

Kasallikni davolash jarayonida bolaning ota-onasi va boshqa oila a'zolari bilan o'zaro munosabatlarini yaxshilashga ham katta e'tibor qaratiladi, unga qo'rquvni yengish, agressiv xurujlarga qarshi kurashish o'rgatiladi. Autizmning turlari, Autizm belgilarini namoyon bo'lish darajasiga ko'ra guruhlarga ajratishdan tashqari, yana bir tasnif mavjud. Rossiyada 1987 yilda autizmning barcha ko'rinishlarini paydo bo'lishi sababli 7 turga ajratadigan sxema ishlab chiqilgan:

- Asperger sindromi;
- Kannerning erta klassik infantil autizm sindromi;
- xromosoma aberratsiyasidan kelib chiqqan autizm;
- Rett sindromi mavjudligidan kelib chiqqan autizm;
- shizofreniya tufayli kelib chiqqan endogen va xurujsimon autizm.

Bolalarda autizm belgilari erta bolalik autizmi quyidagicha namoyon bo'ladi:

1. Ijtimoiy ko'nikmalar buzilishining belgilari: muloqot qilish istagi va tengdoshlariga qiziqish yo'qligi; atrofdagi odamlarning borligi va hissiyotlariga e'tibor bermaslik; rivojlanishning dastlabki bosqichi uchun normal bo'lgan taqlid funksiyasining yo'qligi. Bolalar ota-onalarining yuz ifodalarini takrorlashmaydi, javoban tabassum qilmaydi, kattalarning imo-ishoralari takrorlamaydi yoki ongli ravishda qilmaydi; bolalar o'zlarining muammolari va fikrlarini ota-onalari bilan bo'lishmaydilar.;

2. Nutq va nutq bo'lmagan aloqa rivojlanishidagi muammolar: nutqning yetishmasligi; yuz ifodalari va imo-ishoralarning yetishmasligi; bola ko'z bilan aloqa qilishdan qochadi, suhbatdoshga tabassum qilmaydi; nutq rivojlangan, ammo bola boshqalar bilan aloqa qilmaydi, ularga javob bermaydi; bola iboralarni yoki individual so'zlarni takrorlaydi (Kanner tasnifiga ko'ra "gramofon" yoki "to'tiqush" nutqi); nutqdagi fonetik buzilishlar. Autistlar intonatsiya bilan bog'liq muammolarga duch kelishadi, nutq monoton yoki ritmik jihatdan noto'g'ri bo'lishi mumkin.;

3. Stereotipik xatti-harakatlarning sababi bo'lgan tasavvur rivojlanishidagi muammolar: asabiy xatti-harakatlar; begonalashish; bola yolg'iz o'ynashni yaxshi ko'rishi; o'yinlarni, xayoliy voqealarni ixtiro qilishga qiziqish yo'qligi; bola bitta o'yinchoq yoki narsaga bog'lanib qoladi va u bilan ajralmaydi, doimo qo'lida ushlab turishga intiladi; bola diqqatini faqat bir narsaga qaratadi. Autizm 1 yoshgacha bo'lgan bolalarda va hayotning keyingi ikki-uch yilida shunday namoyon bo'ladi.

Kattalarda autizm belgilari; Kattalardagi autizm belgilari kasallikning shakliga va uning kechishiga qarab farq qilishi mumkin. Bunga xos alomatlar quyidagilar hisoblanadi: yuz ifodalarining kamligi va imo-ishoralarning yetarli emasligi; jamiyatda qabul qilingan aloqa qoidalarini tushunmaslik; atrofdagi odamlarning his - tuyg'ulari, motivlarini tushunmaslik; o'z xatti-harakatlarini tushunmaslik; atrofdagi odamlar bilan do'stona yoki boshqa yaqin munosabatlarni o'rnatish imkoniyatining yo'qligi; biror kishiga murojaat qilish qiyinligi; so'z boyligi yetarli emas, bir xil iboralarni muntazam takrorlash; tanish muhitda xotirjamlikni saqlash qobiliyati va unda biroz o'zgarishlar bo'lsa bezovtalanish; joylar va narsalarga bog'lanish va ularda o'zgarish sodir bo'lsa bezovtalanish;. Agar autizm yengil shaklda bo'lsa, unda 20-25 yoshga kelib, odam allaqachon qarindoshlari yoki vasiylaridan alohida yashashi va o'z muammolarini mustaqil ravishda hal qilishi mumkin. Agar bu shakl autistga bunday turmush tarzini olib borishga imkon bermasa, u odatda butun umri davomida qarindoshlarining qaramog'ida qoladi.

**Xulosa qilib aytganda**, Autizm miyaning rivojlanishi yoki ishlashidagi buzilish natijasida yuzaga keladi. Odatda autizmning dastlabki belgilari 2 yoshli bolalarda namoyon bo'ladi. Ko'pgina hollarda, bu kasallik tug'ma hisoblanadi. Tibbiy tasnif autizmni asab tizimining kasalliklari deb



tasniflaydi, ammo autizm kasallik emas, balki rivojlanishdagi alohida holat degan fikr mavjud. Kasallik o'g'il bolalarda qizlarga qaraganda 4 baravar ko'proq aniqlanadi. Bolalarda autizmning sabablari hali ham noma'lum, ammo kasallikning rivojlanishiga turtki bo'lishi mumkin bo'lgan gipotezalar ro'yxati ishlab chiqilgan va klinik jihatdan tasdiqlangan. Autizmni o'z vaqtida davolamaslik bemorning jamiyat bilan ijtimoiy va hissiy aloqalarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Afsuski, ushbu patologik holatning birlamchi profilaktikasi uchun maxsus usullar mavjud emas. Olimlarning fikricha, autizm kassaligini kelib chiqish sabablaridan biri bu – homilani ona qornidalik davrida ma'lum bir turdagi oqsillarning yetishmovchiligi. Ikkinchi sababi, organizmda ikki xil og'ir metalning, qo'rg'oshin va simobni, ko'payib ketishi. Uchinchi sabab atrof muhitni ekologik buzilishi va homiladorlik paytida kuchli stress holatlarini kechirish. Anemiya hamda qon bosimning oshishi, buyrakda bosim oshishi – bularning hammasi autizmni kelib chiqish sabablari hisoblanadi. Bundan tashqari autizm kasalligi belgilarining kengayishini, ya'ni rivojlanishdan ortda qolish belgilari Retta sindromi, Aspergera sindromi va autizmning klassik simptom komplekslarining ko'p uchrashi. Shuningdek, kasallik haqida ma'lumot ko'paymoqda. Ilgari tortinchoq, uyatchan, introvert va shizofreniyaga moyil bolalarni «g'ayritabiiy bolalar» deyishgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib bunday bolalarni autistik bolalar (autizm) deyiladi.

Davolash maqsadida ortda qolayotgan jihatlarni korrektsiya qilish uchun barcha turdagi autist bolalarga mos keladigan quyidagi chora tadbirlar qo'llash mumkin:

1. Gapirish qobiliyatini yaxshilash maqsadida logoped bilan mashg'ulotlar olib borish;
2. So'zlashish uchun rasmi kartochkalardan foydalanish yoki planshet, kompyuterda so'zlarni yozib o'rgatish;
3. Bola bilan har xil o'yinlar o'ynash, bir sferada faqat bir mutaxassis bilan;
4. Medikamentoz davo faqatgina qo'shimcha sifatida bolada kuchli agressiya bo'lsagina buyuriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Abidova N.Z. Maxsus psixologiya (Tiflopsixologiya). -T.: Barkamol fayz media, 2017.
2. Ayupova M.Yu. Logopediya. -T.: Ozbekiston faylasuflar milliy jamiyati. - 2007 y
3. Muminova L.R., Abidova N.Z va boshqalar. Maxsus psixologiya.-T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2013.
4. Maxsus pedagogika (Mutaxassislika kirish) Xamidova M. Toshkent. Fan va texnologiya. O'quv qo'llanma
5. Pulatova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. T.: Fan va texnologiyalari, 2014